

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**SHODIYEVA FOTIMA OCHILOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA KO‘KQARG‘ASIMONLAR (CORACIIFORMES)  
TURKUMINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI, AHAMIYATI VA  
MUHOFAZALANISHI**

**03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**  
**Content of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)**

**Shodiyeva Fotima Ochilovna**

О‘zbekistonda ko‘kqarg‘asimonlar (Coraciiformes) turkumining  
bioekologik xususiyatlari, ahamiyati va muhofazalanishi..... 3

**Шодиева Фотима Очилевна**

Биоэкологические особенности, значение и охрана отряда  
ракшеобразных (Coraciiformes) в Узбекистане..... 27

**Shodieva Fotima Ochilovna**

Bioecological features, significance and protection of the order rollers  
(Coraciiformes) in Uzbekistan ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 55

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**SHODIYEVA FOTIMA OCHILOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA KO‘KQARG‘ASIMONLAR (CORACIIFORMES)  
TURKUMINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI, AHAMIYATI VA  
MUHOFAZALANISHI**

**03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/B251 raqam bilan ro‘yxatga olingan**

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) vam «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy konsultant:**

**Xolboyev Faxriddin Raxmonkulovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Zokirov Islomjon Ilhomjonovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Ametov Yakub Idrisovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Boymurodov Xusniddin Toshboltaevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zR FA Zoologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 5-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmozor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi 4-uy, O‘zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203 xona. Tel.: (+99871) 227-15-44).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy Universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (177-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmozor tumani, Universitet ko‘chasi 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 7 noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 7 noyabrdagi 36 raqamli reestr bayonnomasi)



**Raximova To‘ra Uzoqovna**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor

**Hustamjon Xamrayevich**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari nomzodi, doktorant

**Eshova Holisa Saidovna**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda hayvonot dunyosi, jumladan qushlarning biologik xilma-xilligini va populyasiyalarining barqarorligini saqlash hamda ushbu resurslardan oqilona foydalanish masalasiga dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shunga qaramasdan, oxirgi yillarda antropogen omillarning bevosita va bilvosita ta'siri hamda yashash muhitining degradasiyalanishi oqibatida muhofaza qilinishi zarur bo'lgan qush turlarining soni oshib bormoqda. Shunday turlar qatoriga ko'kqarg'asimonlar (Coraciiformes) turkumiga mansub bo'lgan va O'zbekistonda keng tarqalgan ko'k qarg'a (*Coracias garrulus* Linn., 1758), ko'ktarg'oq (*Alcedo atthis* Linn., 1758), tillarang kurkunak (*Merops apiaster* Linn., 1758) va ko'k kurkunak (*Merops persicus* Pall., 1773) kabi turlarni misol qilish mumkin. Qayd etilgan turlarning tabiatdagi va xo'jalikdagi ahamiyatining yetarli darajada o'rganilmaganligi va tabiatdagi o'rnini to'g'ri baholanmaganligi oqibatida ularning ko'plab qirilib ketishi kuzatilmoqda. Ko'kqarg'asimonlar (Coraciiformes) turkumiga tegishli turlar bilan sodir bo'layotgan bu kabi holatlarni bartaraf etish maqsadida mazkur turlarni ilmiy asosda chuqur o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli ekotizimlar ornitofunasini muhofaza qilish, qushlarning populyasiyalari barqarorligini saqlab qolish, xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan turlardan oqilona foydalanish, qushlarni noqonuniy ovlashning oldini olish, turlarning ahamiyatini to'g'ri baholash bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, noyob va soni kamayib borayotgan turlarning bioekologik xususiyatlarini o'rganish asosida ularni muhofaza qilish va ayrim muammoli turlarning hatti-harakatini boshqarishning samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik va asalarichilik sohalarini ilg'or texnologiyalar asosida rivojlantirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda o'simlik va hayvonot dunyosini va ularning yashash muhitlarini to'laqonli muhofaza qilish maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning soni va ular egallagan maydon ko'lami kengaytirildi, hayvonlarni noqonuniy ovlashni cheklash va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha qonunchilik bazasi takomillashtirildi. "O'zbekiston – 2030 strategiyasida"<sup>1</sup> "--- hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda tarqalgan qushlarning bioekologik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali, ularni muhofaza qilish, oqilona foydalanish, tabiatdagi va xo'jalikdagi ahamiyatini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentyabrdagi “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi 408-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob’ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi 914-son, 2019-yil 11-iyundagi “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 484-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Coraciiformes turkumiga mansub turlarning tarqalishi, uchrash xususiyatlari, soni, ko‘payishi, ozuqlanishi, ahamiyati, biozararlanishlardagi ishtiroki, xatti-harakatini boshqarish va muhofazalanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim mussasalari, jumladan, Aristotle University of Thessaloniki (Gresiya), University of Leicester (Angliya), Research Museum Alexander Koenig (Germaniya), Biology Department and Museum of Southwestern Biology, University of New Mexico (AQSH), Department of Plant Protection, University of Tripoli (Liviya), Third Faculty of Medicine, Charles University in Prague, Biology Centre of the Czech Academy of Sciences, Institute of Hydrobiology (Chexiya), Spanish National Research Council, Department of Zoology and Ecology, University of Navarra (Ispaniya), National Museum of Natural History “Grigore Antipa” (Ruminiya), Milliy fanlar akademiyasi, Megapolis ekomonitoringi va bioxilma-xilligi Markazi (Ukraina), Zoologiya instituti (Rossiya), Zoologiya instituti (Qozog‘iston) olib borilmoqda.

Ko‘kqarg‘asimonlar turkumiga mansub turlarning Yer yuzida tarqalish areallari, turli ekotizimlardagi soni, reproduktiv siklining bosqichlari, ozuqa spektri, tabiatdagi va xo‘jalikdagi ahamiyati bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olingan: jumladan, *Merops* avlodiga mansub *M. apiaster* va *M. persicus* larning asalari (*Apis mellifera*) bilan ozuqlanishi natijasida shaklanadigan raqobatning ekologik asoslari ochib berilgan (Aristotle University of Thessaloniki, Gresiya, Spanish National Research Council, Department of Zoology and Ecology, University of Navarra), Coraciiformes

---

<sup>2</sup>Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.auth.gr/en/>; <https://www.derby.ac.uk/>; <https://bonn.leibniz/>; <https://biology.unm.edu/research/>; <https://uot.edu.ly/agr/pp/index.php/>; <https://www.lf3.cuni.cz/3LFEN-1/>; <https://en.unav.edu/inicio/>; <https://www.tripadvisor.com/>; <https://natsionalnaya akademiya nauk tsentr/>; <https://znanierrussia.ru/articles/>; <https://zool.kz/> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

turkumiga mansub turlarning filogeniyasi genetik va qazilma qoldiqlarga tayangan holda tasdiqlangan (Biology Department and Museum of Southwestern Biology, University of New Mexico, AQSH), mazkur turkumga mansub turlarning ozuqlanish ekologiyasi hamda ahamiyati aniqlangan (Biology Centre of the Czech Academy of Sciences, Institute of Hydrobiology, Chexiya), Osiyoda tillarang kurkunak (*M. apiaster*) va ko'k kurkunak (*M. persicus*) larning birgalikda yashashi va uning natijasida yuzaga keladigan turli raqobatlar va in qazish orqali uya quruvchi qushlarning o'ziga xos ekologik xususiyatlari aniqlangan (Zoologiya instituti, Rossiya).

Dunyoda hozirgi vaqtda ko'kqarg'asimonlar (Coraciiformes) turkumiga mansub turlarning zamonaviy tarqalish xususiyatlari, turli regionlardagi soni va ularni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: Coraciiformes turkumi turlarining zamonaviy tarqalishini aniqlash, reproduktiv siklining bosqichlarini o'rganish, turli regionlarda ozuqa rasionining xilma-xilligini asoslash, tabiatdagi va xo'jalikdagi o'rnini ochib berish asosida ularning ahamiyatini baholash, *Merops* avlodiga mansub turlarining xatti-harakatlarini boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Coraciiformes turkumiga mansub turlarning tarqalish areallari, migrasiyasi, ko'payishi, ozuqlanishi, biozararlanishlardagi ishtiroki va xatti-harakatini boshqarilishiga oid ma'lumotlar xorijiy mamlakatlar olimlari C.H. Fry (1969, 1982, 1983, 1984), S. Kossenko va boshq (1998), P. Angela (2001), C.C. Alejandro (2005), P. Heneberg (2009), H.M. Alfallah va boshq. (2010), V. Antonio va boshq. (2012), S. Lan va boshq. (2013), M. Cech va boshq. (2015), C. Kathryn (2015), M.M. Jenna va boshq. (2019), J.M. McCullough (2019), D.Stiels va boshq. (2021) va boshqalar tomonidan keltirilgan.

MDH mamlakatlarida Coraciiformes turkumi turlarining biologik va ekologik xususiyatlariga doir tadqiqotlar V.D. Ilichev (1988), A.N.Xoxlov (1990), Malovichko va boshq. (1999, 2000, 2006, 2023), I.V. Prokofeva (2003, 2004, 2008), Yu.V. Kotyukov va boshq. (2004), V.T. Butev (2005), A.K. Rustamov (2005, 2007), D.E. Chudnenko (2012), A.A. Vinogradov va boshq (2014), E.V.Vilkov (2016), M.V. Tarantovich (2016), E.V.Vilkov (2016), V.A. Lenxold (2017), M.R. Ilyux (2018) va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ushbu mualliflar turli regionlarda ko'kqarg'asimonlar turkumi turlarining tarqalish areallari, oziqlanishi va ko'payishi masalalariga asosiy e'tibor qaratishgan.

O'zbekiston ornitofaunasi tarkibidagi Coraciiformes turkumining alohida turlarini o'rganishga oid tadqiqotlar T.Z.Zohidov (1969, 1971), X.S. Salixbayev (1967), D.Yu.Kashkarov (1970), A.K.Sagitov (1980, 1990), R.N.Meklenbursev (1993), A.K.Rustamov (2005, 2007), A.R.Jabborov (2016, 2024), S.E.Fundukchiyev (1981, 2008), N.N.Azimov (2021), A.U.Mamashukurov (2021), F.R.Xolboyev (2022,2023), F.O. Shodiyevalar (2022, 2023, 2024) tomonidan olib borilgan.

Biroq mazkur tadqiqot ishlari O'zbekistonning turli geografik hududlarida va turli yo'nalishlarda amalga oshirilgan bo'lib, ayni vaqtda respublikamizda ko'kqarg'asimonlarning (Coraciiformes) bioekologik xususiyatlari bo'yicha to'liq

ma'lumot bera olmaydi. Shunga ko'ra, O'zbekistonda ko'kqarg'asimonlar (Coraciiformes) turkumi turlarining uchrash xususiyatlari, tarqalishi va sonini aniqlash, bioekologik xususiyatlarini asoslash, tabiatdagi va xo'jalikdagi ahamiyati hamda muhofazalanish xususiyatlarini izohlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining "Global iqlim o'zgarishi sharoitida flora va faunaning bioekologik xossa-xususiyatlarini tadqiq qilish, bioxilma-xilligini saqlash, tuproq va suv resurslarining ekologik holatlarini baholash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish" ilmiy tadqiqot dasturi doirasida (2020-2024) bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekistonda ko'kqarg'asimonlar (Coraciiformes) turkumiga mansub turlarning bioekologik xususiyatlarini aniqlash, ahamiyatini va muhofazalanishini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Coraciiformes turkumiga mansub turlarning O'zbekistonda uchrash xususiyati, tarqalishi va sonini aniqlash hamda ularni boshqaruvchi omillarni ochib berish;

O'zbekiston sharoitida Coraciiformes turkumiga mansub turlarning ko'payish va ozuqlanish ekologiyasini o'rganish asosida uning o'ziga xos kechishini asoslash;

ko'kqarg'asimonlarda kechadigan giperfagiya va lipogenez hodisalarining migrasiya va trofik aloqalar bilan bog'liqligini ochib berish;

Coraciiformes turkumiga mansub turlarning ekologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil etish va uning o'ziga xosligini izohlash;

O'zbekistonda ko'kqarg'asimonlarning tabiatdagi va xo'jalikdagi ahamiyatini ochib berish;

tillarang kurkunak (*Merops apiaster*) va ko'k kurkunakning (*Merops persicus*) asalarichilik xo'jaliklarida biozararlanishdagi ishtirokini kamaytirish bo'yicha amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

Coraciiformes turkumi turlarining muhofazalanishi bo'yicha mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning zaruratini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida O'zbekistonda tarqalgan Coraciiformes turkumiga mansub turlar (*Coracias garrulus* Linn., 1758, *Alcedo atthis* Linn., 1758, *Merops apiaster* Linn., 1758, *Merops persicus* Pall., 1773) va ularning populyasiyalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Coraciiformes turkumiga mansub turlarning uchrash va tarqalish xususiyatlari, bioekologiyasi, tabiatda va xo'jalikdagi ahamiyati va muhofazalanishi masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada taksonomik, morfologik, ornitologik, ekologik, anketa-so'rov, matematik-statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ilk bor O‘zbekistonda Coraciiformes turkumiga mansub turlarning uchrash xususiyati va tarqalishining hozirgi holati aniqlangan hamda ularni boshqaruvchi ekologik omillar asoslangan;

Coraciiformes turkumiga mansub turlarning turli yashash muhitlaridagi soni va sonining mavsumiy dinamikasi aniqlangan hamda ekologik tahlillar asosida ochib berilgan;

O‘zbekiston sharoitida turlarning uyalash stasiyalari, uya tuzilishi, tuxum o‘lchamlari, ko‘payish samaradorligi va reproduktiv siklining boshqa bosqichlarini o‘rganish asosida ularning ko‘payish ekologiyasi ochib berilgan;

Coraciiformes turkumiga mansub turlarning oziqa tarkibi va ozuqa spektrining mavsumiy dinamikasi aniqlangan;

Coraciiformes turkumiga mansub turlarning uya qurish stasiyalari bilan uzviy bog‘liqligi, koloniya holida uya qurishi, giperfagiya va lipogenez hodisalari va biosenotik aloqalardagi ishtiroki kabi muhim ekologik xususiyatlari ochib berilgan;

oshqozonlar og‘irligi, oshqozon va ichki a‘zolaridagi yog‘ qatlamini qiyosiy o‘rganish asosida, qushlarda kechadigan giperfagiya va lipogenez hodisalari va uning sabablari aniqlangan;

O‘zbekiston sharoitida ko‘kqarg‘asimonlarning tabiatdagi va xo‘jalikdagi ahamiyati biosenotik aloqalar, bioturbasiya, asalarichilik va baliqchilik xo‘jaliklari asosida ochib berilgan hamda baholangan;

*Merops* avlodiga mansub turlarning xatti-harakatini boshqarish va biozararlanishdagi ishtirokini kamaytirishga mo‘ljallangan biokustik repellent ishlab chiqilgan, sinovdan o‘tkazilgan va undan asalarichilik xo‘jaliklarida foydalanishning samaradorligi isbotlangan;

O‘zbekistonda ko‘kqarg‘asimonlarning muhofazalanishini o‘rganish asosida bu yo‘nalishdagi muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Coraciiformes turkumi turlarining biotoplar bo‘yicha tarqalishi, soni, ko‘payishi va boshqa hayotiy sikllariga ta‘sir ko‘rsatuvchi ekologik omillar aniqlangan va mazkur omillarning boshqaruvchilik xususiyatlari isbotlangan;

Coraciiformes turkumi turlarining biosenotik aloqalari va bioturbasiya jarayonidagi ishtirokini tahlil qilish asosida ularning tabiatdagi ahamiyati ochib berilgan;

Coraciiformes turkumi turlarining ozuqa spektri va uning mavsumiy o‘zgarishini, *M. apiaster* va *M. persicus* ning asalarichilik xo‘jaliklarida biozararlanishdagi ishtirokini aniqlash asosida ularning xo‘jalikdagi ahamiyati ochib berilgan;

*Merops* avlodiga mansub turlarning hatti-harakatini boshqarish uchun mahalliy qushlarining ofat signallari asosida “*Merops*-ofat signali” bioakustik repellenti ishlab chiqilgan;

“*Merops*-ofat signali” bioakustik repellentini kurkunaklarning tungi koloniyalari hamda asalarichilik xo‘jaliklarida sinovdan o‘tkazish natijasida, amaliyotda uni qo‘llashning samaradorligi isbotlangan;

Coraciiformes turkumi turlarini va ularning yashash muhitlarini muhofaza qilish, ularning xatti-harakatini boshqarish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** ishda qo‘llanilgan klassik va zamonaviy tadqiqot usullari, olingan natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, natijalarning zamonaviy dasturlar asosida statistik tahlil qilinganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda Coraciiformes turkumi turlarining uchrash xususiyatlari, tarqalishi, soni, ko‘payishi, oziqlanishi va uning mavsumiy dinamikasi, giperfagiya va lipogenez hodisalari va uning sabablari, ekologik xususiyatlarining aniqlanganligi va nazariy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Coraciiformes turkumi turlarining tabiatda va xo‘jalikdagi ahamiyatini ochib berish, ularni muhofaza qilish, *Merops* avlodi turlarining asalarichilik xo‘jaliklaridagi xatti-harakatini boshqarish va ularning biozararlanishdagi ishtirokini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekistonda ko‘kqarg‘asimonlar (Coraciiformes) turkumining bioekologik xususiyatlari, ahamiyati va muhofazalanishi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Coraciiformes turkumi *Merops* avlodi turlarining xatti-harakatini boshqarish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyanoma Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Samarqand viloyati boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025 yil 17 maydagi 03-03/1-03/3-4719-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekistonda (Coraciiformes) turkumi turlarining tabiiy va madaniy landshaftlarda tarqalgan turlarining biologik xilma -xilligini monitoring qilish, turlarning hozirgi holatini baholash hamda *Merops* avlodiga mansub turlarning sonini nazorat qilish va ularni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish imkonini bergan;

O‘zbekiston ornitofaunasi, jumladan (Coraciiformes) turkumining bioekologik xususiyatlari, ahamiyati va muhofazalanishiga oid ilmiy natijalar asosida yaratilgan “Ornitologiya” nomli darslik oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga kiritilgan bo‘lib, mazkur darslik 60510100-Biologiya ta’lim yo‘nalishi va 70510101-Biologiya (fan yo‘nalishi bo‘yicha) mutaxassisliklari o‘quv jarayoniga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2025 yil 28 apreldagi 02/01-01-150 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, respublikamizda (Coraciiformes) turkumi turlarining

biologiyasi, ekologiyasi, ahamiyati va muhofazalanishi bo'yicha olingan ma'lumotlar fan mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirish imkonini bergan;

ko'kqarg'asimonlar (*Coraciiformes*) turkumi *Merops* avlodining xatti harakatini boshqarish orqali ularning asalarichilik xo'jaliklariga etkazadigan zararini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2025 yil 24 iyundagi 02/23-1848-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, *Merops* avlodining hatti-harakatlarini boshqarish orqali ularning asalarichilik xo'jaliklariga yetkazadigan zararli ta'sirini kamaytirish va ularni muhofaza qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 2 ta darslik, 2 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, shundan 13 ta respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.


**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 198 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan, ilmiy tadqiqot ishlarining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va ilmiy tadqiqotning amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko'kqarg'asimonlar (*Coraciiformes*) turkumining o'rganilish holati”** deb nomlangan birinchi bobida *Coraciiformes* turkumi turlarining migrasiyasi, tarqalishi, ekologiyasi, ahamiyati va muhofaza qilinishi bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarning tahlillari keltirilgan. Tahlillar natijasida O'zbekistonda ko'kqarg'asimonlar (*Coraciiformes*) turkumiga mansub turlar kompleks tarzda tadqiq etilmaganligi qayd etilgan.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yig'ilgan materialning turi, hajmi va tadqiqot uslublari yoritib berilgan. Tadqiqot ishlari 2021-2025 yillar davomida O'zbekistoning turli tabiiy-geografik regionlarida olib borilgan. Tadqiqot materiallari Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining tabiiy va madaniy landshaftlaridan yig'ilgan (1-rasm).




### 1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlar

Materiallarni yig'ish va ularni qayta ishlashda ornitologiya yo'nalishida umum qabul qilingan uslublardan foydalanilgan. Qushlarning sanog'i bo'yicha hisob ishlari A.P.Kuzyakin (1981), N.S.Morozov (1992), N.V.Medvedev (2013) va boshqalar ishlab chiqqan uslublar asosida bajarilgan. Unga ko'ra, marshrut uslubida marshrut uzunligi 1-2 km. gacha, eni 50-100 metrgacha belgilangan, nuqtali uslub asosan turning ozuqlanish va uyalash joylarida qo'llanilgan. Qushlar sanog'i bo'yicha yig'ilgan materiallar N.G. Chelinsev (1985) tavsiya qilgan ( $D=n/L \times W$ ) formula bo'yicha tahlil qilingan, olingan natijalar 10 ga. maydon yoki 10 km. marshrutga ekstrapolyasiya qilingan. Tuxumlarning shakl indeksi A.L. Romanov va A.L. Romanova (1959) taklif qilgan formula ( $IF=100 \times d/D$ ) bo'yicha aniqlangan. Tadqiqot natijalarning matematik statistik tahlili «Microsoft Excel» dasturi, statistik ishlovi esa G.F.Lakin (1990) tavsiya etgan uslublar asosida amalga oshirilgan.

Ob'ektlarni kuzatish, rasm va video tasvirga olishda Viking 10 x 50 va Balgish 50x50 binokllari, Cinema Res 1200X video kamerasi va fotoapparatlardan foydalanilgan. Tadqiqot davrida o'rganilgan qushlarning jami 382 ta nusxalari yig'ilgan (*Coracias garrulus*-19 ta, *Alcedo atthis*-4 ta, *Merops apiaster*-142 ta, *Merops persicus*-235 ta). Qushlarni ushlashda 16 kolibrli o't ochar va pnevmatik qurollar hamda o'rgimchak to'rlaridan foydalanilgan. Ozuqa spektri va ulushini o'rganish maqsadida, qushlarning oshqozonlari (n=167), qusqilari (n=1115) va ozuqa qoldiqlari (n=141) yig'ilgan va laboratoriya sharoitida tahlil qilingan. Ozuqa tarkibida uchrovchi turlarni laboratoriya sharoitida aniqlashda Eschenbach mobilux led lupasi, MBS-1 binokulyar mikroskopi, elektron va boshqa aniqlagichlardan foydalanilgan.

*M. apiaster* va *M. persicus* ning xatti-harakatini boshqarish maqsadida ularning ozuqlanish va tunash joylarida “KORSHUN-8 PRO” va “SAPSAN-3” bioakustik repellentlari sinovdan o‘tkazilgan (2-rasm). Mahalliy yirtqich qushlar qirg‘iy (*Accipiter nisus*) va miqqiy (*Falco tinnunculus*) va tillarang kurkunakning (*M. apiaster*) ofat signallaridan foydalangan holda, “*Merops* - ofat signali” qurilmasi yaratilgan. Qushlarning ovozlari yozib olish va translyasiya qilishda TASCAM DR-05 diktofoni va ovoz kuchaytirgichdan foydalanilgan va uni bioakustik repellent sifatida sinovdan o‘tkazish orqali samaradorligi tahlil qilingan. Qushlar uyasining ichki tuzilishini, uyalardagi tuxum va jo‘jalarni o‘rganishda texnik endoskop USB HY001(boroskop) dan foydalanilgan.



**2-rasm. A. Texnik endoskop USB HY001 (boroskop). V- Bioakustik repellent Korshun-8 PRO**

Ayrim ma’lumotlarni yig‘ishda asalarichilik va baliqchilik xo‘jaliklarining ishchi hodimlarining xizmatidan, mahalliy aholi bilan olib borilgan anketa so‘rov uslubidan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston sharoitida Coraciiformes turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobi beshta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda O‘zbekistonda Coraciiformes turkumi turlarining uchrash xususiyatlari, tarqalishi va soni bo‘yicha yig‘ilgan materiallarning natijalari bayon etilgan. O‘zbekistonda Coraciiformes turkumining 3 ta oila va 3 ta avlodga mansub 4-turi uchraydi va uchrash xususiyatiga ko‘ra, ularning 3 turi uchib o‘tuvchi-uyalovchi, 1 turi, o‘troq sanaladi (1-jadval).

## Coraciiformes turkumiga mansub turlarning taksonomik tahlili

Turkum	Oila	Avlod	Tur	Uchrash xususiyati
Ko'kqarg'asimonlar (Coraciiformes Sundevall, 1836)	Ko'k qarg'alar (Coraciidae Rafinesque, 1815)	<i>Coracias</i> (Linn., 1758)	Ko'k qarg'a ( <i>Coracias garrulus</i> Linn., 1758)	BM
	Ko'ktarg'oqlar (Alcedinidae Rafinesque, 1815)	<i>Alcedo</i> (Linn., 1758)	Ko'ktarg'oq ( <i>Alcedo atthis</i> Linn., 1758)	R
	Kurkunaklar (Meropidae Rafinesque, 1815)	<i>Merops</i> (Linn., 1758)	Tillarang kurkunak ( <i>Merops apiaster</i> Linn., 1758)	BM
			Ko'k kurkunak ( <i>Merops persicus</i> Pall., 1773)	BM

**Izoh:** BM- Breeder/Migrant, uchib o'tuvchi-uyalovchi; R-Resident, o'troq qushlar

Coraciiformes turkumi turlarining turli muzeylardagi ornitologik fondlarda saqlanayotgan nusxalari tadqiqotlar davrida yig'ilgan materiallar bilan qiyosiy tahlil qilingan va natijada hozirgi vaqtda mazkur turlarning O'zbekistonda uchrash xususiyatlari, tarqalishi va soni oldingi davrdan ma'lum darajada o'zgarganligi aniqlangan. Adabiyotlarda keltirilishicha, O'zbekiston sharoitida *M. apiaster* va *M. persicus* ning tarqalish areallari o'zaro alohidalashgan va bir-biriga mos kelmaydi. Hozirgi vaqtda mazkur turlarning respublikamizda sporodik tarqalishi va populyasiyalarining aralash jamoalar hosil qilishi qayd etilgan. Bu holat har ikkala tur bahorgi migrasiya davrida respublika hududiga janubdan kirib kelishi va kuzgi migrasiyaning teskari yo'nalishda sodir bo'lishi, ular tarqalish areallarining shimolga tomon siljishi, mazkur turlar tarqalishida "zonallilik prinsipi" o'z ahamiyatini yo'qotib borayotganligi va introzonal tarqalish namoyon bo'layotganligi bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda o'rganilgan turlarning bioekologik xususiyatlarida namoyon bo'layotgan o'zgarishlar global va regional xususiyatli tabiiy va antropogen omillar oqibatida qushlarning evolyusiyasida sodir bo'layotgan adaptiv o'zgarishlar sifatida baholanishi mumkin.

Coraciiformes turkumi turlarining maydon birligidagi soni va uning dinamikasi turli biotoplarda turli ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, ko'k qarg'a (*Coracias garrulus*) ning 10 km. marshrutdagi o'rtacha yillik soni DAMACHI AJ da 130,1 tani, Navoiy-Zarafshon-Uchquduq marshrutida esa 0,6

tani tashkil etadi (2-jadval). Bunday katta farq, biotopdagi qushlarning yashashini ta'minlovchi ekologik omillarning optimal va pesimal darajada bo'lishi bilan asoslanadi.


2-jadval

**O'zbekistonda ko'k qarg'a (*Coracias garrulus*) ning o'rtacha soni bo'yicha ma'lumotlar (2022-2025 yy.)**

T/r	Hisob o'tkazilgan biotoplar	Oylar, qushlar soni (10 km. masofa hisobidan)								O'rtacha yillik soni
		IV	V	VI	VII	VIII	IX	X		
1	Toshkent viloyati DAMACHI AJ baliqchilik xo'jaligi (ko'payish stasiyasi)	42,4	240,6	192,2	289,8	115,5	27,3	2,7	130,1	
2	Toshkent shahri– Yangiyo'l tumani marshruti	2,7	6,5	3,4	4,8	2,7	4,0	0,6	3,5	
3	Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani – Sirdaryo daryosi	1,8	2,6	1,7	2,4	3,5	4,4	-	2,3	
4	Sirdaryo daryosi-Jizzax viloyati Do'stlik tumani marshruti	0,3	1,5	6,3	2,3	3,8	2,0	1,2	2,5	
5	Jizzax viloyati Do'stlik tumani-G'allaorol tumani	1,2	3,0	10,4	8,0	6,8	1,4	0,6	4,5	
6	Buxoro viloyati Qorako'l tumani	-	0,8	1,3	2,2	1,4	0,3	-	0,8	
7	Farg'ona viloyati Oltiariq tumani	0,9	1,5	2,0	2,3	0,6	1,1	-	1,2	
8	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus tumani	0,3	0,6	0,9	-	1,5	2,1	0,3	0,8	
9	Samarqand viloyati, Ishtixon, Qo'shrabod va Bulung'ur tumanlari	2,2	4,1	8,8	12,4	7,8	4,2	0,8	5,7	
10	Samarqand viloyati, Qo'shrabod tumani Oboy q. (Ko'payish stasiyasi)	17,2	120,4	86,0	51,6	68,8	34,2	4,3	54,6	
11	Surxondaryo viloyati Termiz tumani	-	1,3	0,9	2,5	1,2	1,6	-	1,1	
12	Navoiy viloyati. Zarafshon-Uchquduq marshruti	0,2	0,8	1,1	0,5	-	1,7	-	0,6	
<b>O'rtacha oylik soni</b>		<b>5,76</b>	<b>31,97</b>	<b>26,25</b>	<b>31,56</b>	<b>17,80</b>	<b>7,02</b>	<b>0,87</b>		

*C. garrulus* ning o'rtacha oylik soni may (31,97 ta) va iyul (31,56 ta) oylarida eng yuqori, aprel (5,76) va oktyabr (0,87) oylarida eng past ko'rsatkichlarni egallaydi (3-rasm). Yuqori ko'rsatkichlar bahorgi migrasiya davrida qushlarning respublikamiz orqali shimoliy regionlarga uchib o'tishi, uyalash va ozuqlanish

uchun qulay joylarni tanlashga yoʻnaltirilgan koʻchishlar, populyasiyaning yosh vakillar hisobiga toʻldirilishi natijasida namoyon boʻladi. Past koʻrsatkichlar bahorgi migrasiyaning boshlanish va kuzgi migrasiyaning yakunlanish muddatlariga muvofiq dastlabki uchib kelgan va oxirgi uchib ketayotgan vakillar hisobiga sodir boʻladi. Dissertatsiyaning mazkur boʻlimida *Alcedo atthis*, *Merops apiaster* va *Merops persicus* larning uchrash xususiyatlari, tarqalishi va soni boʻyicha yigʻilgan materiallar ham yuqoridagi kabi tahlil qilingan.



**3-rasm. Hisoblar amalga oshirilgan joylarda koʻk qargʻaning (*Coracias garrulus*) oʻrtacha oylik soni (10 km. hisobidan, 2022-2025 yy.)**

Ikkinchi boʻlimda Oʻzbekistonda Coraciiformes turkumi turlarining uchrash xususiyatlari, tarqalishi va sonini boshqaruvchi asosiy ekologik omillar aniqlangan. Bunday omillarga qushlarning reproduktiv sikli, trofik aloqalari, himoyalanganlik darajalari kiritilgan va ularning qushlar ekologiyasidagi oʻrni ochib berilgan.


Uchinchi boʻlimda Coraciiformes turkumi turlarining koʻpayishiga oid yigʻilgan materiallarning tahlili bayon etilgan. Unda qushlarning reproduktiv siklining barcha bosqichlari, jumladan uya qurish joylarini tanlashi, in qazish orqali uya qurishi, uyalarning va tuxumlarning tuzilishi, morfometriyasi, joʻjalarning inda yashashga ixtisoslashuvi, koʻpayish samaradorligi va unga taʼsir qiluvchi ekologik omillar va boshqalar yoritilgan (3-jadval).

**O‘zbekistonda Coraciiformes turkumiga mansub turlar uyalarining  
joylashuvi va morfometriyasining qiyosiy tavsifi**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Ko‘k qarg‘a (<i>Coracias garrulus</i> Linn., 1758)</b>	<b>Ko‘ktarg‘oq (<i>Alcedo atthis</i> Linn., 1758)</b>	<b>Tillarang kurkunak (<i>Merops apiaster</i> Linn., 1758)</b>	<b>Ko‘k kurkunak (<i>Merops persicus</i> Pall., 1773)</b>
Uya qurish joylari va uyalar joylashuvi	Jarliklar, qoyalar, uyalar koloniya holda	Suv havzasining qirg‘oqlari, uyalar yakka holda	Jarliklar, qoyalar, kar‘erlar, uyalar koloniya holda	Jarliklar, qoyalar, kar‘erlar, tik qig‘oqlar va tekistliklar, uyalar koloniya va yakka holda
Uya yo‘lagining umumiy uzunligi (sm. hisobida)	65,8 (43-82)	54,5 (35-70)	142,9 (68-170)	163,1 (120-198)
Uyaga kirish teshigining balandligi (sm. hisobida)	11,5 (8,0-16,0)	6,7 (6-8)	6,4 (6-7)	6,7 (6,0-8,0)
Uyaga kirish teshigining eni (sm. hisobida)	13,1 (9,0-21,0)	7,5 (7-8)	6,9 (6,0-8)	6,6 (6,0-7,5)
Uya kamerasing uzunligi (sm. hisobida)	34,5 (27-41)	12,2 (11-13)	32,4 (22-38)	30,7 (24-35)
Uya kamerasing balandligi (sm. hisobida)	14,9 (9,0-18,0)	7,0 (7-8)	9,3 (8-11)	8,2 (6-10)
Uya kamerasing eni (sm. hisobida)	17,5 (11,0-25,0)	14,0 (13-15)	20,9 (17,0-24,0)	21,7 (16,0-25,0)
Uyaga kirish teshigining yer (ko‘ktarg‘oqda suv) sathidan balandligi (sm. hisobida)	120-820	81 (34-128)	264 (35,0-440,0)	62 (20,0-110,0)
Uya ichidagi holat	Uya yo‘lagi va kamerasida xas-cho‘p, par va ozuqa chiqitlaridan iborat to‘shama bor	Uya kamerasida baliqlar qoldig‘i va ekskrementdan iborat to‘shama bor	Uya yo‘lagi egatsimon, kamerasida ko‘pincha ozuqa chiqitlaridan iborat to‘shama bor	Uya yo‘lagi egatsimon, kamerasida ko‘pincha ozuqa chiqitlaridan iborat to‘shama bor

Coraciiformes turkumiga mansub turlar turli tik va yassi, baland va past tepaliklarga uya qurishga moslashgan bo‘lib, ularning uya qurish joylarini tanlashida tuproqning fizikaviy tarkibi muhim omil sanaladi. O‘rganilgan turlarning barchasida uyalar tuzilishida o‘xshashlik bor, ammo uyalarning joylashuvi va o‘lchamlari o‘zaro farq qiladi. Uyalardagi o‘xshashlik va farqlar

uyalarda jo‘jalarning embrional va postembrional rivojlanishi, qushlarning himoyalaniishi, uyada qulay harorat va namlikni saqlash kabi ekologik va evolyusion moslanishlar sifatida izohlangan (4-rasm).



#### 4-rasm. Coraciiformes turkumiga mansub turlar uylarining morfometriyasi

Koloniya holida uya quruvchi turlarda tanlangan joyning qulayligi, ozuqa ob'ektlarining sifati va miqdori, abiotik va biotik omillarning ta'siriga muvofiq ravishda, koloniyadagi uyalar soni va uyalar orasidagi masofa turlicha bo'ladi. Adabiyotlarda *M. apiaster* va *M. persicus* ning tirik uyalari atrofida bir nechta "soxta" yoki "qo'shimcha" uyalar bo'lishi qayd etiladi (5-rasm). Tadqiqotlar davomida mazkur uyalar qushlarning in qazishi jarayonida qattiq yoki yumshoq qatlamga duch kelish oqibatida tashlab ketilgan uyalar ekanligi aniqlandi. In qazib uyaloovchi turlarda uya konservativizmining yaqqol namoyon bo'lishi qayd etildi. Ammo populyasiyaning ayrim vakillari eski uyalardan foydalanmasdan yangi uyalar qurishi kuzatiladi. Bu holat ayrim eski uyalar kamerasida ekskrement va ozuqa chiqitlarining chirishi natijasida noqulay muhitning shakllanganligi, uyaning boshqa turlar tomonidan egallanganligi, turli erroziyalar natijasida uya o'lchamlarining o'zgarganligi bilan isbotlangan. O'rganilgan turlarning uylaridagi tuxumlar soni, ularning morfometrik ko'rsatkichlari va ko'payish samaradorligi aniqlandi (4-jadval).



**5-rasm. A- *M. apiaster* ning uya koloniyasi. B-Embrional rivojlanish bosqichida *M. apiaster* va *M. persicus* jo‘jalarining tovon bo‘g‘imida shakllangan “qadoq” (Buxoro viloyati 2022-2025 yy.)**


4-jadval

**Coraciiformes turkumi turlarining uyalaridagi tuxumlar soni, tuxumlar morfometriyasi va ko‘payish samaradorligi**

Ko‘rsatkichlar	<i>C. garrulus</i>	<i>A. atthis</i>	<i>M. apiaster</i>	<i>M. persicus</i>
Tuxumning bo‘yi (mm)	34,45	22,11	25,15	24,36
Tuxumning eni (mm)	26,72	17,93	21,20	21,62
Tuxumning shakl indeksi (mm)	79,14	81,38	84,53	88,90
Tuxumlar vazni (g)	13,20	3,60	6,89	7,04
Uyadagi o‘rtacha tuxumlar soni	4,91 ta (3-6 ta)	6,7 ta (6-8)	6,4 ta (5-7 ta)	6,2 ta (5-7 ta)
Tuxumlarning nobud bo‘lish foizi	27,3%	-	7,3%	20,0%
Jo‘jalarning nobud bo‘lish foizi	11,0%	-	29,2 %	35,40%
Ko‘payish samaradorligi	65,3%	29,6%	63,5%	45,4%

*C. garrulus* (65,3%) va *M. apiaster* (63,5%) da ko'payish samaradorligi yuqori, *A. atthis* (29,6%) va *M. persicus* (45,4%) da esa past ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi. Ko'payish samaradorligi uyalar joylashgan joydagi ekologik omillar, jumladan uyalarning himoyalanganlik darajasi, turli omillar ta'sirida tuxum va jo'jalarning nobud bo'lishi va boshqalar bilan bog'liqligi yoritib berildi. *M. apiaster* va *M. persicus* da jo'jalarning embrional rivojlanishi juda notekis kechishi, odatda oxirgi tuxumdan chiqqan jo'ja juda kichikligi sababli ba'zan nobud bo'lishi qayd etildi. Embrional davrida jo'jalarning tovon bo'g'imi ostida o'ziga xos "qadoq" shakllanishi aniqlandi va u jo'jalarning uyada harakatlanish uchun qulaylik yaratishi bilan asoslandi.

To'rtinchi bo'limda o'rganilgan turlarning oziqlanishi, oziqa tarkibi va uning mavsumiy dinamikasi ochib berilgan. Jumladan, ko'k qarg'aning ozuqa tarkibida 45 turdagi ozuqa ob'ektlarining uchrashi, unda hasharotlar 86,6% (39 tur), va ayniqsa Coleoptera turkumiga mansub 18 turning hissasi (40,0%) yuqori ekanligi qayd etilgan (6-rasm).



### 6-rasm. *Coracias garrulus* ning oziqa tarkibida turli turkumlarning ishtiroki

*C. garrulus* ning ozuqa tarkibida mayda umurtqali hayvonlarning (*Bufo viridis*, *Rana ridibunda*, *Eremias velox*, *Ablepharus sp.*, *Natrix tessellate*, *Microtus sp.*) uchrashi ham kuzatilgan. Bu turning uya qurish va ozuqlanish stasiyalarida mazkur ozuqa ob'ektlarining ko'pligi va ularga erishishning engilligi bilan izohlangan. Ushbu bo'limda Coraciiformes turkumi boshqa turlarining ozuqlanishiga tegishli ma'lumotlar ham yuqoridagi tartibda tahlil qilingan.

Beshinchi bo'limda Coraciiformes turkumi turlarining ekologik xususiyatlarini o'ziga xosligi ochib berilgan. Ularning abiotik (harorat, namlik,

yorug'lik) va biotik omillarga adaptatsiyalanishda, ozuqlanish va uya qurish muhitlarini tanlashda, sutka davomida faolligida hamda biosenotik aloqalarida turli ekologik nishalarni egallashi aniqlangan. *M. persicus* va *M. apiaster* lar oshqozonlarining massasi hamda oshqozon va ichki a'zolarida yog' zaxirasining yig'ilishini tahlil qilish asosida mazkur turlarda giperfagiya va lipogenez hodisalarining sabablari, fiziologik va ekologik xususiyatlari tahlil qilingan (5-jadval, 7-rasm).

5-jadval

**Giperfagiya va lipogenez natijasida *Merops* avlodi turlarida oshqozon og'irligining o'zgarishi (n=115, g. hisobida)**

